$$\text{Oziq. N} - \text{tezak. N} \times 100$$

Proteindan foydalanish koeffisiyenti hazmlanadigan N dan necha foiz hayvon tanasida jamg'arilishini ko'rsatadi.

Hazmlanadigan proteinning me'yordan keskin ziyod bo'lishi va to'liq qiymatsiz oqsil bilan oziqlantirilsa qon zardobida machevinaning

ko'payishiga sababchi bo'ladi. Machevinaning sintezlanishi jigarda bo'lib, 1gramm molekula mochevina hosil bo'lishi uchun 70kkal almashinuv energiyasi sarflanar ekan. O'simlik oqsili, hayvon tanasidagi ham uglevod, kislrorod vodoroddan tashqari 16% atrofida N saqlaydi.

O'simliklarning, hayvon mahsulotlari va mikroob oqsillarining hazmlanish bir xil bo'lmaydi.

Xar xil turdagi oziqalarning biologik to'liq qiymatliligi to'g'risida klinik ko'rsatkichlarga qarab (hayvonning qoni yoki suti tarkibidagi mochevina miqdori bo'yicha) bilvosita fikrlash mumkin.

Hayvonga hazmlanadigan proteinni me'yordan ortiqcha berish va sifatsiz, ya'ni aminokislotalari yetarlik bo'lmagan oqsillar bilan oziqlantirish doimo qandda mochevinaning ko'payishiga olib keladi.

G.Bergner ma'mumotlariga ko'ra o'sayotgan cho'chqalarda va laboratoriya hayvonlarining qonida aminokislotalar eng qulay ta'minlangan holatda mochevina miqdori 15-16mg % oshmasligi kerak.

Hayvon organizmda mochevina aminokislotalarning aminsizlanishida ajraladigan amiak va uglerod diooksididan jigarda sintez qilinadi. 1gramm molekula mochevina hosil bo'lishi uchun organizm 70kkal almashinuv energiya sarflaydi.

Shuning uchun ham hayvonlar hazmlanadigan protein bilan ortiqcha oziqlantirgandan o'zining mahsuldorligini biroz kamaytiradi.

O'simliklar mikroblar va hayvonlar oqsillari bir xil murakkablikga ega bo'lgan har xil turdagi 22 ta aminokislata polimirlarining kimyoviy birikmalardan tashkil topgan.

Hayvon organizmi oziqalar moddalardagi oqsillar uglevodlar va yog'lardan farqli ularoq tarkibida uglerod, kislrorod va vodoroddan tashqari 16% azot ham saqlaydi.

Fermentlar va gormonlarni hosil qiluvchi oqsillar yuqoridagilarga qo'shimcha holda fosfor, temir (gemogloblin), magniy(xlorofilli)

mikroelementlar va vitaminlarni ham saqlaydi. O'simliklar, hayvonlar va mikroblarning ayrim oksidlardagi aminokislotalar (metionin, sistin) oltingurgut saqlaydi.

O'simliklar, mikroblar va hayvonlar to'qimalarning ayrim qismdagi oqsillarning hazmlanishi bir xil emas.

Protoplazma oqsillari yaxshi hazmlanadi, yadroniki yomon yoki umuman hazmlanmasligi mumkin.

Oziqa proteinidagi azot aminokislotalar va sanoatda chiqariladigan sintetik aminokislotalar haayvonlar va mikroorganizmlar tomonidan maxsus fermentasiyasiz ham hazmlanish mumkin.

Har qaysi aminokislotalarning ikki xil izomer vakili bor. L va I formulalari.

Bu formulaning L-oziglanishda va oqsilning sintezlanishida faol ishtirok etadi.

I formulasi passiv bo'lib, organizmga tushgandan keyin yemiriladi.

Tabiiy oziqalardagi oqsillar aminokislotalarning I- formulasini saqlaydi.

Ayrim oziqalar proteinning hazmlanishiga to'sqinlik qiluvchi ingibitor moddalarni ham saqlaydi. Bu ingibitor proamitik fermentlar faoliyatini to'xtatadi. Ayniqsa proteolitik fermentlar inbiotiri dukkaklirlar donida (soya, no'xat va boshqalar) ko'p bo'ladi.

Oziqalar qancha mayda-maydalansa cho'chqalarda proteinning hazmlanishi yaxshilanib, aminokislotalar yaxshi so'riladi. Kavshovchilar va parrandalar uchun oziqalar qancha mayda-maydalansa hazmlanish buzilib protein yomon hazmlanadi.

Oziqa tarkibida hazmlanadigan proteindagi 22 aminokislotalarda yarmi organizm uchun o'ta zarur hisoblanadi. Bu ayniqsa yosh o'suvchi organizm uchun muhimdir.

Aminokislota turlari

№	O'rin almashinmaydiganlar	№	O'rin almashmaydiganlar
1	Argenin	1	Alanin
2	Valin	2	Asparginovaya kislota
3	Gistidin	3	Gulutaminovaya kislota
4	Leysin	4	Glisin
5	Izoleysin	5	Pramin
6	Lizin	6	Serin
7	Metionin	7	Tirozin
8	Triptofon	8	Sitrumin
9	Trianin	9	Instin
10	Finixalanin	10	Sistein

Glisin faqat jo'jalar uchun o'rin almashmaydigan sistin-yarim o'rin almashadigan oltingugurt saqlaydigan aminokislota bo'lib,30-50% metionin o'rnini qoplash mumkin.

Hayvonlar o'simlik oziqalar bilan oziqlantirilganda lizin, metionin, triptofandan boshqa aminokislotalarga bo'lgan talabi amaliy sharoitda qondiriladi. Yuqoridagi 3 aminokislotalar tanqiz hisoblanadi.

Hayvonlarda olinadigan oziqalar,achitqilar va dukkakililar proteinni boshqalarga nisbatan aminokislotalarga boy bo'ladi.

Hayvonlardan olinadigan oziqalarning donlar bilan aralashtirilishi cho'chqa va parrandalarning aminokislotalar bilan ayniqsa lizin bilan ta'minlashda muhimdir.

3.2. Rasion to'liqqiyamatliligi – sigirlarni sut mahsuldorligini oshirishda asosiy omil.

Sog'iladigan sigirlardan olinadigan sut mahsulotining miqdori va tarkibi rasionda beriladigan ozuqa turi va tarkibiga bog'liqligi, ko'plab olimlar va amaliyotchilar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda o'z isbotini topgan.

Mamlakatimizning turli hududlarida chorva mollarini oziqlantirishda foydalanadigan ozuqa tarkibi, ya'ni unda saqlanadigan to'yimlilik moddalar miqdori bir – biridan farq qiladi. Shuning uchun rasion to'liqqiyamatliligini ta'minlashda rasionga kiritilgan har bir turdagi ozuqaning tarkibini bilish maqsadga muvofiq.

Haydarov Q.H., Nahalboyev A. (2010) lar tomonidan olib borilgan izlanishlar, ozuqalarning umumiy to'yimlilik adabiyot ko'rsatgichlariga nisbatan anchagina farqi borligini ko'rsatdi.

Rasion to'liqqiyamatliligi birgina energiya beruvchi moddalar bilan baholanmasdan, organik moddalarning hayvon organizimiga ko'rsatadigan ta'siri, rasiondagi onorganik va biologik aktiv moddalarning ishtirokisiz amalga oshirilmaydi.

Adabiyot ko'rsatgichlari bo'yicha va haqiqiy to'yimlilik asosida, mineral qo'shimchalar bilan boyitilgan va samonga ishlov berishi bilan oziqlantirishning sog'iladigan sigirlar sut mahsuldorligiga ta'siri o'rganilgan.

Nazorat guruhidagi sigirlar rasioni to'yimlilik adabiyot ko'rsatgichlari asosida, 1 tajriba guruhidagi sigirlar rasioni to'yimlilik haqiqiy ko'rsatgich asosida, mineral moddalarsiz, 2 chi tajriba guruhi sigirlar rasionida ozuqa miqdori o'zgartirilmasdan, mineral moddalar bilan boyitilib samonga ohak suvi bilan ishlov berilgan.

Oligan natijalar taxlili shuni ko'rsatadiki, nazorat guruhi rasionning umumiy to'yimlilik me'yori talabiga mos, ammo hazimlanuvchi protein miqdori me'yorga nisbatan 81 g ga kam, bu albatta olinadigan mahsulot miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1 – chi tajriba guruhidagi sigirlarga rasion ozuqaning haqiqiy to'yimlilik asosida tuzildi, bu o'z navbatida sigirlarning to'yimlilik moddalarga bo'lgan talabini qondirishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2 – tajriba guruhidagi sigirlarni oziqlantirish huddi 1 chi tajriba guruhidagi sigirlarnikidek bu yerdagi farq 2 chi guruh rasioni mineral qo'shimchalar bilan boyitildi, rasionga kiritilgan samonga kimyoviy ishlov berildi, mineral moddalarning o'zaro nisbatlari me'yor talabiga javob beradigan holatda tenglashtirildi.

Rasionga mineral moddalarning qo'shilishi, samonga ishlov berish, to'yimlilik moddalarning hazimlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va mahsuldorlikning oshishiga sababchi bo'ldi.

Nazorat guruhidan sog'ib olingan sut 90 kunda 666,8 l, 1 chi tajriba guruhiniki 866 l, 2 chi tajriba guruhiniki esa 939,8 l ni tashkil etdi. 1 chi tajriba guruhidan sog'ib olingan sut nazorat guruhiga nisbatan 199,2, 2chi tajriba guruhidagi sigirlardan olingan sut miqdori 273,0 l ga ko'p bo'lgan. 1 chi va 2 chi tajriba guruhlaridan olingan sutning farqi 73,8 l ni tashkil etgan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, rasion qanchalik to'liqliyatlik bo'lsa sog'iladigan sigirlardagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish shunchalik yuqori bo'lar ekan.

3.3. Ozuqaning to'yimlilik uning tarkibiga bog'liq

Mahsulot yetishtirishda rasionga kiritiladigan ozuqaning tarkibi ya'ni uning to'yimlilik darajasi muhim ahamiyatga ega. Turli ekologik sharoitga ega bo'lgan qoramolchilik fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan va sotib olinadigan turli xildagi ozuqalarning kimyoviy tarkibi va shu asosda ularning umumiy to'yimlilik ko'rsatilgan.

Xom protein, xom yog', xom kletchatka, azotsiz ekstrativ moddalar, umumiy to'yimlilik, ozuqa birligi.

Xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun hayvonlardagi mavjud mahsulot berish imkoniyatini to'lig'icha ishga solish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun hayvon organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarning me'yorda bo'lishini, takroriy ishlab chiqarish va mahsulot ishlab chiqish uchun talab qilinadigan organik, anorganik va biologik aktiv moddalar bilan ta'minlash zarur. Hozirgi kunda ko'pgina fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan ozuqalar turli sabablarga ko'ra tayyorlash texnologiyasiga to'lig'icha amal qilmasdan tayyorlanadi, natijada uning tarkibida saqlanishi zarur bo'lgan to'yimlik moddalarning ayniqsa biologik aktiv moddalarning yo'qolishiga yo'l qo'yilmoqda.

Hayvonlarga rasion tuzishda fermer xo'jaliklari o'zlariga qarashli maydonlarda yetishtirilgan ozuqalarning haqiqiy to'yimlilikini aniqlamasdan, adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalanmoqda. Bunday holat hayvonning to'yimlik moddalarga bo'lgan talabini qondirmaydi, chunki to'yimlilikni belgilovchi ko'pgina ko'rsatkichlar adabiyot ko'rsatkichlaridan past.

Har bir kimyoviy element juda kam miqdorda bo'lsa ham o'simlik va hayvon organizmida ma'lum bir fiziologik rolni bajaradi. O'simliklar ozuqalarining va hayvon organizmining kimyoviy tarkibini va ayrim elementlarning fiziologik rolini o'rganish, ozuqa va hayvonlarni oziqlantirish fanining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ozuqa tarkibidagi barcha turdagi kimyoviy elementlar organik, anorganik va metalloorganik birikma shaklida bo'ladi. Organik moddalar ozuqalarning to'yimlilikini belgilab ularga xom protein, xom yog', xom kletchatka, azotsiz ekstrativ moddalar kiradi. Ozuqalar tarkibida bu moddalarning ko'p yoki kam bo'lishi ko'pgina faktorlarga bog'liq bo'ladi. Jumladan tuproqning tarkibiga, havoning haroratiga, namlik miqdoriga, quyosh nuri bilan ta'minlanish darajasiga, o'sish fazasiga, o'z vaqtida o'rib yig'ib olinishiga, saqlanishiga va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Ekologik sharoiti har xil bo'lgan hududlarga yetishtirilgan ozuqalarning kimyoviy tarkibi quyidagi jadvalda berilgan.

Ozuqalarning kimyoviy tarkibi, %

(mutloq quruq holatda)

Ozuqa turi	Xom protein	Xom yog'	Xom kletchatka	AEM	kul	Ozuqa birligi 1 kg da
Navoiy viloyati «Do'stlik» agrofirmaasi						
Turli o'tlar pichani	5,36	1,73	37,99	50,04	4,88	0,32
Makkajo'xori silosi	2,70	0,19	26,44	68,93	1,74	0,16
Paxta shroti	25,90	5,88	17,61	46,65	3,96	0,80
Omuxta yem	11,42	4,15	29,15	44,80	10,48	0,67
Surxondaryo viloyati Qum-qo'rg'on tumani «Raxmiddin» fermer xo'jaligi						
Beda pichani	12,77	1,73	32,41	47,04	6,05	0,40
Makkajo'xori silosi	2,50	0,15	27,85	67,68	1,82	0,18
Bug'doy somoni	3,20	1,78	34,70	52,62	7,70	0,16
Paxta shroti	25,68	7,00	13,08	50,02	4,22	0,80
Omuxta yem	14,71	2,54	13,42	64,05	5,28	0,75
Sirdaryo viloyati Oq-Oltin tumani «mamor» fermer xo'jaligi						
Beda pichani	11,08	1,87	34,00	46,78	6,27	0,37
Makkajo'xori silosi	2,41	0,17	29,27	65,72	2,43	0,16
Bug'doy somoni	2,47	1,54	36,12	51,59	8,28	0,15
Paxta shroti	24,72	5,80	18,41	45,92	5,15	0,75
Omuxta yem	12,20	3,18	12,60	68,12	3,90	0,80

Jadvallar ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, har xil hududda yetishtirilgan oзуqalarning tarkibidagi energetik to'yimlilikni belgilaydigan organik moddalar miqdori oзуqalar turlari bo'yicha bir-biridan farq qilibgina qolmasdan bir turdagi ammo turli hududda yetishtirilgan oзуqalar ham bir-biridan farq qiladi. Oзуqa tarkibidagi xom kletchatka boshqa turdagi organik moddalarga nisbatan hazmlanish koeffitsiyenti pastligi bilan farq qiladi. Bu ko'rsatkich «Do'stlik» agrofirkasida yetishtirilgan pichanda 37,99 % tashkil etgan. Bada pichani tarkibida xom kletchatka «Raxmiddin» fermer xo'jaligida 32,41 % bo'lsa, «Ma'mur» fermer xo'jaligida 34,0 % tashkil etgan. Bu xo'jaliklarda yetishtirilgan pichanlarning umumiy to'yimliliqi suli oзуqa birligida 0,32, 0,40, 0,37 oзуqa birligini tashkil etgan. Hayvonlarga rasion tuzishda barcha xo'jalikda 0,44 oзуqa birligi bilan hisoblangan. Davlatdan sotib olinadigan paxta shroti va omuxta yemlar tarkibi ham kimyoviy tarkibi jihatidan ham umumiy to'yimliliqi jihatidan ham farq qiladi. M: Navoiy viloyatida ishlab chiqariladigan paxta shrotining umumiy to'yimliliqi 0,80 oзуqa birligini tashkil etgan bo'lsa, qolgan ikki fermer xo'jaligida 0,75 oзуqa birligini tashkil etgan. Omuxta yemning umumiy to'yimliliqi ham turli xo'jalikda turlicha «Do'stlik» agrofirkasida 0,67 oзуqa birligini, «Raxmiddin» fermer xo'jaligida 0,75 oзуqa birligini, «Mamur» fermer xo'jaligida esa 0,80 oзуqa birligini tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar adabiyotlardagi o'rtacha ko'rsatkichlarga qaraganda ancha past. Adabiyotlarda paxta shrotining umumiy to'yimliliqi 0,89 oзуqa birligi, omuxta yemda esa 0,95-1,0 oзуqa birligi hisobida berilgan. Xo'jaliklarda aynan shu to'yimlilik asosida qoramollarga rasion tuziladi. Tabiiyki, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida tuzilgan rasionda hayvon organizmining to'yimlilik moddalarga bo'lgan talabi yetarlik darajada qondirilmaydi, shuning uchun ko'zda tutilgan mahsulot olinmaydi.

Har xil hududda yetishtirilgan oзуqalar tarkibini va uning umumiy to'yimliliqini aniqlash bilan shunday xulosaga kelish mumkinki, hayvonlarni to'g'ri va to'liq qiymatli oziqlantirish uchun rasionga kiritiladigan har bir

turdagi ozuqaning haqiqiy to'yimlilikini aniqlash va shu asosda rasion tuzish zarur.

To'liqqiyimatli ozuqalantirish – irsiy imkoniyatni ishga solishning asosiy omili.

Haydarov Q.H., Nahalboyev A. (2010) Ozuqaning tarkibi ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini jumladan, tuproqning unumdorligiga, ozuqa turiga, o'g'itlanish, quyosh nuri bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq ekanligini qayd etadi.

Hayvonlarni ozuqlantirishda to'yimlilikni birlamchi baholash ko'rsatgichi sifatida kimyoviy tarkibni o'rganish muhimdir. Chunki kimyoviy tarkib asosida oziqaning umumiy to'yimliliği belgilanadi va shu asosida rasion tuziladi. Ammo ko'pgina fermer xo'jaliklarida oziqadagi mavjud to'yimlilik aniqlanmasdan adabiyot ma'lumotlaridan foydalaniladi. Xo'jalikdagi oziqalarning to'yimliliği adabiyotlardagi o'rtacha ko'rsatgichga nisbatdan past bo'lsa hayvonning to'yimlilik moddalarga bo'lgan talabi qondirilmaydi, demak hayvonning mahsulot berish imkoniyatidan to'liq foydalanilmaydi, o'rtacha ko'rsatgichlardan yuqori bo'lsa ozuqa me'yordan ortiq berilgan bo'ladi, natijada olingan mahg'sulot tannarxi qimmatlashadi. Shuning uchun har bir xo'jalikda yetishtiriladigan ozuqalarning turlari bo'yicha haqiqiy to'yimlilikini aniqlab rasion tuzish zarur. Ushbu maqsadda Navoyi kon metallurgiya kombinatiga qarashli Do'stlik agrofirmasidagi sog'in sigirlarga agrofirma mutaxassislari tomonidan adabiyot ma'lumotlari asosida tuzilgan rasionning mahsuldorlikka ta'sirini va rasionga kiritilgan ozuqalarning haqiqiy to'yimliliği asosida tuzilgan rasionning mahsuldorlikka ta'siri o'rganildi.

Chorvachilikni rivojlantirishda ozuqa bazasini mustahkamlash, hayvonlarni to'g'ri va to'liqqiyimatli oziqlantirish, mavjud ozuqaning haqiqiy to'yimliliği asosida rasion tuzish maqsadga muvofiq

Ozuqalar tarkibidagi organik moddalarning hazmlanish koeffitsiyenti aniqlashda adabiyot ma'lumotlaridan foydalanildi. Umumiy to'yimlilikni aniqlashda O.Kelnerning yog' hosil qilishi konstantlardan foydalanildi va suli ozuqa birligida ifodalandi.

Umumiy to'yimliliği ikki xil bo'lgan rasionning sut mahsuldorligiga ta'sirini o'rganish uchun mahsuldorligi o'rtacha bo'lgan 16 bosh sigir ajratildi va 8 boshdan 2 guruhga bo'lindi.

1 guruh sigirlar (nazorat guruhi umumiy to'yimliliği adabiyot ma'lumotlari bilan, tuzilgan rasion bilan 2 chi guruh sigirlar (tajriba guruhi) esa haqiqiy to'yimlilik asosida tuzilgan rasion bilan ozuqlantirildi.

Qoramollar rasionining asosiy qismini o'simliklardan olinadigan ozuqalar tashkil etadi. O'simliklardan olinadigan ozuqalar ham tarkibi va to'yimliliği jihatdan farq qilib qolmasdan, hattoki bir o'simlik tanasining turli joylarida to'yimlilik moddalari turlicha bo'lishi bilan ham farqlanadi. Ozuqalarning kimyoviy tarkibi tarkibidagi moddalar turlari va miqdorini aniqlash uchungina aniqlanmasdan shu tarkib asosida uning to'yimliliği ham belgilanadi va shu to'yimlilik asosida rasion tuziladi.

Do'stlik agrofirmasiga qarashli maydonlarda yetishtirilgan ozuqalar tarkibi va to'yimliliği qo'yidagi jadvalda berilgan.

Ozuqaning kimyoviy tarkibi, % (mutloq quruq holda)

Ozuqa turi	Xom protein	Xom yog'	Xom kletchatka	AEM	Kul	Ozuqa birligi	
						Adabiyotl arda	Haqiqa tda
Turli o'tlar	5,36	1,73	37,99	50,04	4,88	0,44	0,32

pichani							
Makkajo'xori selosi	2,70	0,19	26,44	68,93	1,74	0,20	0,16
Paxta shroti	25,90	5,88	17,61	46,65	3,96	0,89	0,80
Omuxta yem	11,42	4,15	29,15	44,80	10,48	1,0	0,67

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadi berilgan oзуqalar tarkibida saqlangan organik moddalar miqdori jihatidan bir - biridan anchagina farq qiladi. Oзуqalarning umumiy to'yimlilikini ya'ni adabiyotdagi hamda haqiqiysi bilan solishtirilganda ular o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada ekanligi kuzatiladi. Xo'jaliklarda barcha turdagi qoramollarga rasion tuzilganda adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Natijada hayvon talab qiladigan to'yimlilik moddalarni yetarli darajada qabul qilmaydi.

Tajriba o'tkazish jarayonida tajribadagi sigirlar uchun maxsus rasion tuzilmasdan xo'jalik mutaxassislari tomonidan tuzilgan rasionni taxlil qilingan. Xujalikda 12 kg sut berayotgan sigirlarga qo'yidagi miqdorda oziqa berilgan.

Sigirlar rasioni

Nazorat guruhi		Tajriba guruhi				
Ozuqa	Ozuqa miqdori, kg	Umumiy to'yimlilik				Umumiy to'yimlilikdagi farq
		Adabiyot ma'lumotlari bilan hisoblanganda		Haqiqatda		
Pichan	5	0,44	2,2	0,32	1,6	0,06
Silos	23	0,20	4,6	0,16	3,68	0,04
Shrot	3	0,89	2,67	0,80	2,4	0,09
Omuxt	6	1,0	6,00	0,67	4,02	0,33

a yem						
Osh tuzi	0,05				-	
Jami			15,47		11,7	0,52

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki nazorat guruhidagi sigirlarning har bir kg suti uchun adabiyot ma'lumotlari bo'yicha 1,29 ozuqa birligi sarflangan. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning har bir kg suti uchun 0,97 ozuqa birligi sarflangan. Ushbu ozuqalar bilan har ikkala guruhdagi sigirlarning nasliy imkoniyati to'lig'icha ishga solinganligini yoki solinmaganligini aniqlash uchun rasionga qo'shimcha holda 3 kg dan bug'doy maysasi qo'shib berildi. Bu qo'shimcha berilgan ozuqaga sigirlar 1,3 kg sut qo'shdi. Ushbu rasionga yana qo'shimcha 2 kg silos va 1kg pichan qo'shildi. Bu qo'shilgan qo'shimcha ozuqaga sigirlar qo'shimcha sut bermadi.

Tajriba davomida olingan natijalarga asoslanib shunday xulosaga keldikki, sog'iladigan sigirlardagi nasliy imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun, rasion tuzishda beriladigan har bir ozuqaning tarkibini aniqlab, umumiy to'yimlilikni belgilash zarur va shu asosda rasion tuzilishi kerak.

Golovin A.V. va boshqalar (1910) o'simliklardan olinadigan oqsil komionintlari yuqori biologik hususiyatga ega bo'lsada omuxta yemga qo'shiladigan kunjara va shrotlar tarkibada ulardan foydalanish koeffesentini pasaaytiruvchi moddalar bo'lib ular sa'lbiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardan foydalanish koeffesentini oshirishda rasionga kompeliks fermentli priparatlarning qo'shilishi surilishiga to'siqlik qiluvchi moddalarni parchalaydi va to'yimlik moddalardan foydalanishga yordam beradi.

Ular qoramollar o'stida o'tkazilgan tajribada to'yimlik moddalarning hazimlanish koeffisiyenti 1chi va 2 chi tajriba guruhlarida, ya'ni fermentli preraratlarni qabul qilgan guruhlarda barcha turdagi organik moddalarning hazlanish koeffisiyenti oshganligini kursatadi.

To'yimlik moddalarning hazmlanish koeffitsiyenti

Ko'rsatgichlar	Guruhlar		
	Nazorat	1-tajriba	2-tajriba
Quruq modda	62,9 \pm 1,85	65,1 \pm 1,27	66,3 \pm 1,01
Organik modda	64,1 \pm 2,13	66,9 \pm 1,51	68,0 \pm 2,37
Protiyen	62,1 \pm 3,02	64,4 \pm 2,40	65,4 \pm 1,04
Yog'	63,2 \pm 3,12	65,9 \pm 1,29	66,0 \pm 1,27
Kletchatka	61,8 \pm 2,21	63,3 \pm 1,74	64,9 \pm 2,40
AEM	66,8 \pm 0,82	68,8 \pm 1,26	70,4 \pm 0,99

IV. MAVZUNI O'QITISH USLUBI.

4.1. Innovasion texnologiyalar tushunchasi

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi) lar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganib kelgan edi. Bunday usul talaba (yoki o'qituvchi) larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedogogik va axborot teznologiyalari) dan foydalanib ta'limni samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi) lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) lar asosiy figuraga aylanadi.

Pedogok olimlarning yillar davomida ta'lim tizmida

Nega o'qitamiz?

Nima o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz?

Savollariga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? Degan savolga ham javob qidiradilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonlarga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keladi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedogogika fanida yangi pedogogik texnalogiya yo'nalishini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi qo'ydagilardir:

Birinchiidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta'lim to'g'risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Ikkinchiidan, pedagogik texnologiyalar o'quv –tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchunchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizmini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligini va o'qituvchi kimni o'qiyotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarni asoslashga imkon yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizmi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va

o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomondan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublari, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llashga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi) larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovasiya (ingilizcha - innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“**Inter**” – bu o'zaro, “act” – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, **o'qitishning interfaol** uslubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilgan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushuntirish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi) larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba (yoki o'quvchi) larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talaba (yoki o'quvchi)ning dars davomida befarq bo'lmaslikga, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talaba (yoki o'quvchi) larning fanga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda ham bir masalaga ijodiy yondashishgan holda kuchaytirilishi;

- pedogog va talaba (yoki o'quvchi) larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Pedagogik texnologiyalari masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, *pedagogik texnologiya* – faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llashi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompter, masofali o'qitish yoki turli xil texnik vositalar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyani eng asosiy negizi – o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, taxlil etib, o'zlari xulosa qilaolsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, O'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. *O'quv jarayonidagi **pedagogik texnologiya**- bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)ning extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyhalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.*

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'qivchi) ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mavzu, uslub, shakl, vositaga, ya'ngi texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'qivchi)ning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'qivchi) larning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab, balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarkatma marerial, chizma va

plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi) larning imkoniyati va extiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'qivchi) ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

4.2. Texnologik xarita

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bulajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchi bulajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qilayotgan predmet, fanning hususiyatidan, talaba (yoki o'quvchi) larning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Texnologik xaritani tuzish oson ish emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedogogika, psixologiya, xususiy metodika, pedogog va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p uslub va usullarni bilishi kerak. Har –bir darsning rang – barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzulgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinish (yoki shakil)da tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konispektini yozishdan xolos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayoning xamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Misol tariqasida qo'yida huquq fanidan "Otalikni belgilash" mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini havola qilamiz.

Darsning texnologik xarita

Mavzu	Otalikni belgilash
Maqsad, vazifalar	<p>Maqsad: Talabalarga qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirishda samarali usullarni qo'llashni o'rgatishdan iborat. Bunda qishloq xo'jalik hayvonlarini mahsuldorligini oshirishda va ulardan sifatli mahsulot olishda oziqlantirishning hozirgi davrdagi eng yetarli usullari deb tan olinganusullarini qullash qonunlarni oziqlantirish texnologiyasini bilib ularni amaliyotda va ishlab chiqarishda qo'llashni bajarib ko'rsatishdan iborat.</p> <p>Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - oziqlantirish haqida tushuncha berish - oziqlantirish usullari haqida tushuncha berish - oziqlantirishning hayvonlarni mahsulot berish turiga kura qo'llash usullari - oziqlantirish usullarining iqtisodiy samara berishiga kura usullari. - Oziqlantirishning o'rtacha jadal va samarali usullari ularning qo'llash texnologiyasini o'rgatish.
O'quv jarayoning mazmuni	<p>Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirishning turli xil usullarini jumladan oddiy, o'rtacha, jadal, past. Samarali usullari haqida tushuncha berish. Ularni qo'llash texnologiyalarini o'rgatish ko'rsatib yoritib berish. Eng samarali usullarni qo'llashni o'rgatish.</p>

<p>O'quv jarayoning amalga oshirish texnologiyalari</p>	<p>Metod: Aqliy hujum, Klaster</p> <p>Shakl: amaliy mashg'ulot</p> <p>Vosita: kompyuter, slaydlar, tarqatma materiallar, topshiriq varvqalari</p> <p>Usul: chizma, diograma, yozma topshiriqlar</p> <p>Nazorat: test, yozma va og'zaki savol-javoblar, suhbat.</p> <p>Baholash: retning tizmida.</p>
<p>Kutiladigan natijalar</p>	<p>O'qituvchi: Belgilangan vaqtda juda ko'p axborotlarni berishga va topshiriqlashni bajarib kursatishga erishish charchamasdan darsga ijodiy yondashish erishishdan iborat.</p> <p>Talaba: Mavzuni to'liq o'zlashtirishga tegishli taxliliy usullarni o'rganishga muvofiq bo'ladi va tegishli topshiriqlar oladi.</p>
<p>Kelgusi rejalar)</p>	<p>O'qituvchi: Iterfaol usullarda dars o'tishga ko'nikma hosil qilib boradi.</p> <p>Talaba: Mustaqil ishlash jarayonida tegishli topshiriqlar bajarish ko'nikmasini egallab boradi.</p>

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar invasion texnologiyalardir, ya'ni yangi pedagogik o'qitish texnologiyalari, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashga juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ta'lim jarayonida shaxsning rivojlantirishning shakllanishi talabaning bilim olishi va tarbiyalashga sharoit yaratishimiz va ya'ni boshqaruvchanlik xolati vazifasini bajarishimiz kerak. Shuning uchun biz kasb-hunar kollejlarda malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun hozirgi kunda interaktiv metodlardan va invasion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni yo'lga qo'yish zarur.

Pedagogik texnologiyalar va kasbiy mutaxassislikga oid bilim va tajribalar interoaktiv metodlar talabalarni yetuk malakaviy mutaxassisi bo'lishini ta'minlaydi.

“Innovatsiya” inglizcha so'z bo'lib “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. Innovasion texnologiyalar o'qituvchi va talaba faoliyatiga yaqinlik kiritadi, o'zgarishlar va uni amalga oshiradi. Asosan innteraktiv metodlardan foydalaniladi. Innteraktiv metod bu jamoa bo'lib fikirlash uchun usgin ma'noni bildiradi.

Bunda pedagogik ta'sir etish usullari ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Innavasion pedagogik texnologiyalar metodlarini o'ziga xosligi shundaki ular faqaye pedogog va talabaning birgalikda faoliya ko'rsatishi orqali sodir bo'ladi.

Yangi pedagogik metodlardan foydalanib dars o'tishida qo'ydagilar shakllanadi.

1. Talabaning dars jarayonida befarq bo'lmasligini ta'minlaydi. Mustaqil fikrlash ijod etish va izlanishni ta'minlaydi. Shunga majbur qiladi.
2. Talabani o'quv jarayonida bilimi bilan qiziqishi doimiy bo'lishini ta'minlaydi.
3. Talabalarning ilimga bulgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashishi kuchaytiriladi.
4. Pedogog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtiriladi.

Pedagogik texnologiyalarda faqat axborot texnologiyasi amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida texnologik vositalardan kompyuterdan kadoskopdan, filliplardan tarqatma materiallardan foydalanaman. Pedagogik texnologiyaning o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlanganda natijaga erishishda qo'llanilgan. Har bir ta'lim texnologiyalarini o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa o'qituvchi ham ijobiy natijalarga erishadi.

O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar talabalar mustaqil fikrlay olsalar o'ziga guruhiga baho bera olsalar ta'lim ijrosini to'g'ri tashkil etilgan bo'ladi.

Har bir dars va har bir fanning o'ziga xosligi texnologiyalarni bo'ladi. O'qituvchi dars o'tadi ana shu hususiyatlarni hisobga olgan.

- O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayoni bo'lib u talabalarning ehtiyojidan kelib chiqib bir maqsadga yunaltirilgan bo'ladi.
- Talim jarayoni oldindan loyihalashtiriladi va kafolatlangan natija berishga qaratilgan bo'ladi. O'quv jarayonining qo'ydagicha loyihalashtirish o'tkazaman.
- Maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan erishadi o'qituvchi va tomonlarning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular o'qiydigan maqsad tinglayman. Mazmun metod shakl vositasi ta'lim texnologiyasi ustunligi o'qituvchi va talabaning maqsad natijaga erishishda qanday texnologiyalarni tanlash biz o'qituvchilarning ixtiyorida bo'ladi. Bunda men talabaning bilish saviyasini va sharoitiga qarab tayyorlashdan foydalanish texnologiyasini tanlayman.

Bunda xivon bilan ishlash, o'quv vositalaridan foydalanish ularni sozlab ishlata olish laboratoriya ishlarini bajarish va filmirlardan kodoskop, tarqatma materiallardan va rionlardan planatlardan, asbob-uskunalardan turli adabiyotlardan foydalanish, axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Kafolatlangan natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan loyihalashtirish. Bu jarayonda o'quv fanining o'ziga xos tomonlarini mavjud sharoitlarni ta'lim muassasalarida bor bo'lgan o'qitish texnik vositalarini va namunadagi faoliyatini hisobga olingan va ta'lim jarayoniga kiritilgan. Shunda kafolatlangan natijaga erishaman.

